O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro'yxatga olindi: № BD-60220500 2024 yil "10" 03		"TASDIQLAYMAN" SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil "__" _____

"TA'LIM FALSAFASI"

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 - Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220500 – Falsafa

Fan/modul kodi TF 1204	Oquv yili 2024-2025	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat	
1.	Fan nomi	Auditoria mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami:
	Ta'lim falsafasi	54	66	120

II Fanning maqsadi (FM)	
2	Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga ta'lim tarbiya falsafasining shakllanishi, yo'nalishlari, ta'limning va tarbiyaning mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari va ta'limning falsafiy muammolarini tadqiq etuvchi bilim sohalarini ochib berishdan hamda mazkur fan orqali ta'limni va tarbiya tizimini yanada rivojlantirish, ta'lim va tarbiya, amaliyot uyg'unligini mustahkamlash, ta'lim va tarbiya taraqqiyoti orqali jamiyat va davlat taraqqiyotiga erishishga safarbar etishdan iborat.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)	
M1	**Ta'limning falsafiy va nazariy masalalari. Ta'lim falsafasining mohiyati, maqsadi, ob'yekti va predmeti, vazifalari, qonun va kategoriyalari.** Ta'lim falsafasi ta'limning falsafiy mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari va muammolarini ochib beradigan bilimlar, nazariy qoidalar. Ta'limning taraqqiy etishi, unga falsafiy jihatdan yonlashish, ulardan mantiqiy xulosalar chiqarish, yuksak nazariy tafakkur, falsafiy dunyoqarashga ega bo'lish. Ta'limda falsafiy, nazariy-ma'rifiy va umumiy metodologik xususiyatga ega bo'lgan muammolar yuzaga kelishi. Ta'lim muammolari yechimini topishda falsafiy tafakkurning muhimligi. Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida falsafiy tafakkur omiliga e'tiborning kuchayishi. Falsafaning ta'lim sohasidagi zaruriy ahamiyati.
M2	**Ta'lim falsafasi taraqqiyotining asosiy boshqichlari.** Ta'lim falsafasining evolyutsion rivoji. Tarixiy taraqqiyot bosqichlari. Mamlakatimizda ta'limning tarixiy, falsafiy ildizlari. Qadimgi davrda ta'lim va tarbiyaga munosabat. Avestodagi ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarning falsafiy mohiyati. Mamlakatimiz tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida ta'lim va tarbiya falsafasi.
M3	**O'rta asr sharq mutafakkirlarining ta'limga oid falsafiy qarashlari.** O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ta'lim taraqqiyoti. O'rta asrlarda mamlakatimizda hukmdorlarning ta'lim masalasiga oid oqilona siyosati. Akademiyalarning tashkil topishi. O'rta asr sharq mutafakkirlarining ta'limga munosabati va falsafiy qarashlari. O'rta asrlarda ta'lim va falsafa doirasida xalqaro hamkorlik.
M4	**Mustamlakachilik davrida ta'limga munosabat.** Mavjud ijtimoiy tizimning ta'limga oid siyosiy islohotlari. Ta'limning yangi bosqichi. Yangicha talim mexanizmlarining qaror topishi. Jamiyatning mavjud ijtimoiy tizimga moslashuvchanligi. Jadidlarning ta'limga oid yangicha falsafiy qarashlari. Yangi usul maktablarining shakllanishi. Ta'lim tizimini takomillashtirish orqali milliy istiqlolga erishishga harakatlarning jadallashuvi.
	O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy ta'lim tizimini shakllantirishning nazariy asoslari. Mustaqillik yillarida yurtimizda milliy ta'lim tizimini yaratish va takomillshtirish borasida muhim islohotlarning amalga oshirilishi. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning qabul qilinishi. Ta'lim tizimini bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirish va uni modernizatsiyalash. Ta'limning eng quyi bosqichidan tortib eng yuqori bosqichigacha yangicha islohotlar amalga oshirilishi. Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning qabul qilinishi va ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv.
M5	**Milliy farovonlikni yaratishda ta'lim tizimining ahamiyati.** Moddiy farovonlik va milliy farovonlik uyg'unligi. Milliy ta'lim tizimlari. Milliy-madaniy merosning ta'lim jarayonidagi ahamiyati. OAV ning ta'lim jarayonida tutgan o'rni. Ta'limning milliy modeli. Sub'yekt-sub'yekt munosabati.
M6	**Milliy ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilish jarayoni. O'quv dasturlarini yaratishda qo'yilgan falsafiy prinsiplar.** Milliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish borasidagi yangi islohotlar. Xalqaro tajriba almashinuvi. Bugungi kunda o'quv dasturlarini yaratishdagi falsafiy prinsiplar. O'quv dasturlarini yaratishdagi tarixiylik, milliylik, zamonaviylik, gumanitarlik, izchillik. amaliylik, raqobatbardoshlik, novatorlik, jozibadorlik prinsiplari.
M7	**Ta'limning qadriyat sifatidagi mohiyati. Ta'limga falsafiy yondashuvning zarurati.** Inson ta'lim jarayonining sub'yekti sifatida. Ta'limni majburiyat sifatida emas, balki haqiqiy qadriyat sifatida qabul qilinishida falsafaning ta'siri. Ta'limning Davlat qadriyati, jamiyat qadriyati, shaxs qadriyati sifatidagi mohiyati. Ta'lim va davlat. Ta'lim jamiyat. Ta'lim va shaxs munosabatlari uyg'unligida namoyon bo'lishi. Ta'limga falsafiy yondashish. Ta'lim falsafasi, ta'lim jarayoni mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, prinsiplari muammolarini va ziddiyatlarini falsafaning o'zagi bo'lgan dialektika, ontologiya, bilish nazariyasi, logika, etika hamda epistemologiya sohalari nuqtai-nazaridan o'rganish va ochib berish.
M8	**Pedagogik paradigmalar va ularning ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati.** Shaxsga y o'naltirilgan rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni pedagogik tenglik g'oyasiga tayanishi. O'qituvchi hamda o'quvchi orasidagi subyekt – subyekt munosabatining amalga oshishi. Ta'lim oluvchi shaxsi oliy qadriyat sifatida markaziy o'rin egallashi. Ta'lim oluvchini sinergetik, ya'ni o'z-o'zini tashkil etishga yo'naltirish, fikrlashga o'rgatish, xulosalar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish. Milliy ta'lim tizimida oila, maktab, mahalla hamkorligi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim va tarbiya tizimini yangilangan sog'lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma'naviy va axloqiy saviyasiga ko'ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish.
M9	**Zamonaviy ta'lim jarayonining tizimlilik xususiyatlari.** Zamonaviy ta'limning tizimlilik xususiyatlari. Zamonaviy ta'lim tushunchasining ilmiy mohiyati va unga tizimli yondashuv. Zamonaviy sinergetik ta'lim tizimining fan va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, tizimli tahlil masalasining mantiqiy va tanqidiy tafakkur tarzi bilan bog'liq jihatlari. Ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv. Ta'lim oluvchilar va ta'lim beruvchilar manfaatini uyg'unlashtiradigan, innovatsion g'oyalarga nisbatan tahliliy (analitik) va tanqidiy (refleksiv) munosabatni shakllantira oladigan zamonaviy, integratsion (o'zaro hamkorlikdagi), ratsional (aql va tafakkurga asoslangan) ta'lim. Zamonaviy ta'limning evristik jihatlari. **Zamonaviy ta'lim muammolari.** Ta'lim tizimi modernizatsiyalash. Milliy – madaniy merosning yoshlar ta'limga ta'siri. Barkamol insonni tarbiyalashning moddiy negizlarini yaratilishi. Yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasida yangicha metodologik uslublar. Yoshlarni tinchlik uchun kurash ruhida tarbiyalash. Zamonaviy

	ta'lim muammolari va ularni bartaraf etishda mamlakatning ratsional siyosati.
M10	**O'zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotining milliy ta'lim taraqqoyotiga bog'liqligi.** Ta'lim va siyosat. Ta'lim va iqtisod. Ta'lim uyg'unligi. Odamlardan tashkil topgan turli murakkablikdagi ijtimoiy sistemalar. Ongga, fikr, tafakkurga ega bo'lgan insonlar. Ijtimoiy harakat va faoliyat.
M11	**Ta'limning konstruktiv va distruktiv xususiyatlari.** Ta'lim jarayonining konstruktiv jihatlari. Ta'limda distruktiv xususiyatlarning namoyon bo'lishi. Ta'lim jarayonida xaos holati. Ta'lim tartibsizlik va tartibotning o'rin almashinuvi. Tal'imda nochiziqlik. Ta'limda muvozanat va muvozanatsizlik.
M12	**Ta'lim tizimining murakkabligi.** Ta'limning tarmoqlashuvi. Ta'limning ko'pqirraligi. Ta'limning o'zgaruvchanligi. Ta'lim jarayonining doimiy yangilanib borishi. Ta'limga tashqi va ichki muhit ta'siri. Ta'limda attraktorlarning namoyon bo'lishi. **Zamonaviy ta'lim sinergetik tizim sifatida. Ta'limning sinergetik qonuniyatlari.** Ta'lim tizimida sinergetik qonuniyatlarning namoyon bo'lishi. Ta'lim jarayonida gomeostaz qonuniyati. Ta'limda o'z-o'zini tashkillashtirish qonuniyati. Ta'lim jarayonida nochiziqlik qonuniyati. Ta'limning notekic rivojlanishi. Ta'lim ehtiyojining muntazam o'zgarib borishi. Zamonaviy ta'limga bo'lgan talabning doimiy ortib borishi. Ta'limda ochiqlik qonuniyati. Ta'lim tizimidan chiqadigan axborotning ta'lim jarayoni subyektlari tomonidan erkin qabul qilinishi. Ta'lim tizimida beqarorlik qonuniyati.
M13	**Ta'lim tizimida o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni.** Ta'lim jarayonida tashkillashish. Ta'limda ochiqlik va yopiqlik muammosining falsafiy mohiyati. Ta'lim va tarbiya jarayonida fluktuatsiyalar va bifurkatsiya nuqtasining namoyon bo'lishi. Zamonaviy ta'lim o'z-o'zini tashkil etuvchi tizim sifatida. Ta'lim sistemasida o'z-o'zini tashkillashtirishning mazmun-mohiyati. Ta'lim sistemasining harakatga keltiruvchanlik xususiyatlari.
III. Mashg'ulotlar shakli: Seminar mashg'uloti	
S1	Ta'lim va tarbiyaning falsafiy va nazariy masalalari. Ta'lim va tarbiya falsafasining mohiyati, maqsadi, ob'yekti va predmeti, vazifalari, qonun va kategoriyalari
S2	Ta'lim va tarbiya falsafasi taraqqiyotining asosiy boshqichlari
S3	O'rta asr sharq mutafakkirlarining ta'lim va tarbiyaga oid falsafiy qarashlari
S4	Mustamlakachilik davrida ta'lim va tarbiyaga munosabat: O'zbekistonda mustaqillik yillarida milliy ta'lim va tarbiya tizimini shakllantirishning nazariy asoslari
S5	Milliy farovonlikni yaratishda ta'lim va tarbiya tizimining ahamiyati
S6	Milliy ta'lim tizimini takomillashtirish va isloh qilish jarayoni. O'quv dasturlarini yaratishda qo'yilgan falsafiy prinsiplar
S7	Ta'lim va tarbiyaning qadriyat sifatidagi mohiyati. Ta'limga falsafiy yondashuvning zarurati
S8	Pedagogik paradigmalar va ularning ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati
S9	Zamonaviy ta'lim jarayonining tizimlilik xususiyatlari
S10	O'zbekiston ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyotining milliy ta'lim va tarbiya taraqqoyotiga bog'liqligi
S11	Ta'limning konstruktiv va distruktiv xususiyatlari: Ta'lim tizimining murakkabligi
S 12	Zamonaviy ta'lim sinergetik tizim sifatida: Ta'limning sinergetik qonuniyatlari
S 13	Ta'lim tizimida o'z-o'zini tashkillashtirish jarayoni: Ta'limdagi xalqaro hamkorlik – milliy ta'lim tizimi rivojining muhim omili
S 14	Ta'lim falsafasi va milliy g'oya: Yangi O'zbekistonda ta'lim-tarbiya sohasidagi yangicha islohotlar

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:
"Falsafa" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular va mustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi (90)

№	Mavzu nomi
1.	Ta'lim va tarbiya falsafasining mohiyati, qonuniyatlari, prinsiplari
2.	Hozirgi kunda mamlakatimiz ijtimoiy hayotida falsafiy tafakkur omiliga e'tiborning kuchayishi
3.	Falsafaning ta'lim va tarbiya sohasidagi zaruriy ahamiyati
4.	Ta'lim-tarbiya tizimini bosqichma-bosqich, izchil amalga oshirishda mamlakatning oqilona siyosati
5.	Ta'limni modernizatsiyalashning mazmun-mohiyati va ahamiyati
6.	Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga munosabati va xalqaro falsafiy maktablarning tashkil topishi
7.	XIX-XX asrlarda yurtimizda shakllangan falsafa maktablari
8.	Mustaqillik yillarida yurtimizda milliy ta'lim tizimini yaratish va takomillshtirish borasida muhim islohotlar
9.	Pedagogik paradigmalar va ularning ijtimoiy taraqqiyotidagi ahamiyati
10.	Zamonaviy ta'limning tizimlilik xususiyatlari
11.	Zamonaviy ta'lim va tarbiya tushunchasining falsafiy-ilmiy mohiyati va unga tizimli yondashuv
12.	Zamonaviy sinergetik ta'lim tizimining fan va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni
13.	Ta'lim va tarbiya jarayoniga tizimli yondashuvning zarurati
14.	Ta'lim-tarbiya tizimini modernizatsiyalash
15.	Milliy – madaniy merosning yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ta'siri, innovatsion targ'ibot texnologiyalari
16.	Yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyasida yangicha metodologik uslublar.
17.	Zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolari va ularni bartaraf etishda mamlakatning ratsional siyosati
18.	Zamonaviy ta'lim sinergetik tizim sifatida
19.	Ta'limning sinergetik qonuniyatlari.
20.	Ta'limdagi xalqaro hamkorlik – milliy ta'lim tizimi rivojining muhim omili

Ta'lim falsafasi fani orqali – fanning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotida katta o'ringa ega ekanligi, vatanparvar, millatparvar, insonparvar, halol, zamonaviy barkamol insonni voyaga yetkazish ta'lim va tarbiya falsafasining dolzarb vazifalaridan biri ekani, fanning zamonaviy

	konsepsiyalari, innovatsiyalari haqida *tasavvurga ega bo'lishi;* ta'lim va tarbiyaning falsafiy masalalarini, nazariy xulosalarini *bilishi va ulardan foydalana olishi;* falsafiy dunyoqarash, matiqiy tafakkur va intellektual rivojlanish haqida *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;* ta'lim va tarbiya falsafasining xususiyatlari, fanlar tizimidagi mohiyati, ta'lim va tarbiya muammosi va turlari, zamonaviy ta'lim-tarbiyaning tizimlilik xususiyatlari haqida tasavvurga *ega bo'lishi kerak.*

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • **"*Ta'lim falsafasi*"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** • Talaba **"*Ta'lim falsafasi*"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***. Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishi kerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnoligiyalari va metodlari:** ma'ruzalar; interfaol keys-stadilar; "Aqliy hujum" metodi; "T-jadval", "Venna" tahlil metodi va boshqa interfaol metodlar
5.	**VII. Kreditni olish uchun talabalar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va mustaqil ta'lim nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish.

	Asosiy adabiyotlar
A1.	Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Darslik. –Toshlent.: Cho'lpon, 2018. – 684 b.
A2.	Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Falsafa. Samarqand.: SamDU nashri, 2021. – 712 b.
A3.	Ergasheva M. Ta'lim taraqqiyoti: sinergetik tahlil. – Samarqand: SamChTI, 2022. 194 bet.
A4.	Эргашева М. Таълим фалсафаси. Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 2018. – 74 б.
A5.	Эргашева М. Мафкуравий жараёнларнинг тизимли таҳлили. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 2021. – 244 б.
	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar
Q1.	Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат.-Тошкент: ТДПУ, 2003. – 199 б.
Q2.	Антонов, А. Системный анализ: Учебник. – Москва.: Высшая школа, 2004. – 454 с.
Q3.	Розин В.М. Образование в условиях модернизации и неопределенности: Концепция. – Москва.: ЛИБРОКОМ, 2013. – 80 с.
Q4.	Самадов А., Эргашева М. Шахс эстетик идеали: шаклланиши ва ривожланиши муаммолари. Монография. – Тошкент: "Ziyo buloq", 2021. - 303 б.
Q5.	Султанова Г.С. Илмий тафаккур тарзида конструктив креативлик. Монография. – Самарқанд: "Самарқанд давлат чет тиллар институти", 2021. –160 б.
Q6.	Shermuhamcdova. N. Falsafa va fan metodologoyasi. - T.: Aloqachi, 2008, 400 bet.
Q10.	Сайидахмедов И.С. Индиаминов Н.Н. Педагогик маҳорат ва педагогик технология. – Т.: Fan texnologiya, 2014. 336 б.
Q11.	Хаитов Ш.И. Ўзбекистон фалсафа тарихи. – Т.: Noshir, 2011. 560 б.
7.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 202___ yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ul: O.G'aybullayev– Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti, Falsafa va milliy g'oya kafedrasi dotsenti
9.	Taqrizchilar: A.Aymatov- Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani (ichki) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy tadqiqotlar instituti bo'limi boshlig'i, siyosiy fanlar doktori (DSc) (tashqi) Musayev M

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

Falsafa va milliy g'oya kafedra mudiri **prof. A.Samadov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**

Samarqand davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Ta'lim va tarbiya falsafasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Fan bo'yicha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunimng qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belglab bcrish o'quv (lasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Fan dasturi oliy ta' lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Ta'lim va tarbiya falsafasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

Dasturda "Ta'lim va tarbiya falsafasi" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga Olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga olgan.Yuqoridagilami hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani, (DSc) **Aymatov A.Q.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Falsafa va milliy g'oya" kafedrasida o'tiladigan "Ta'lim va tarbiya falsafasi" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

Fan bo'yicha tuzilgan o'quv dasturi fanning maqsadi, vazifalari, o'quv fani mazmunimng qisqa bayoni, talabalarning bilimi va ko'nikmalariga qo'yiladigan talabalar singari bir qator qisimlardan iborat. Xususan o'quv fanning maqsad va vazifalarini belglab bcrish o'quv (lasturining muhim belgisidir. Chunki aynan shu narsa yaratiladigan o'quv darsligi muallifga muayyan nuqtai nazarni tanlash, o'qituvchiga esa pedagogik mo'ljalini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Ta'lim amalyotida o'quv dasturi yaratishning konsentrik (markazlashgan) hamda tizimli usullari bor. Konsentrik yo'l bilan tuzilgan o'quv dasturlari ta'limning mazmuni yoki o'quv materiallari o'qitishning keng bosqichda yuksakroq darajada takrorlash ko'zda tutiladi. Tizimli usuldagi o'quv dasturlarida o'quv materiallari fan mantig'iga muvofiq soddadan murakkabga qarab ketma-ket joylashtiriladi. Ta'limning o'quv dasturi tomonidan belgilangan mazmuni darslik, o'quv qo'llanmalar, ko'rgazmali qurol va metodik tavsiyalarda to'la namoyon bo'ladi.

Fan dasturi oliy ta' lim tizimda bakalavir bosqichi talabalari uchun o'tiladigan "Ta'lim va tarbiya falsafasi" fanining mazmuni va o'tilishi tartibini, talabalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hamda ko'nikmalar hajmini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat hisoblanadi.

Dasturda "Ta'lim va tarbiya falsafasi" fani yo'nalishi xususiyatlarini hisobga Olgan holda ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlari uchun mavzular va ulami bayon etish uchun zarur ko'rsatma va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek mustaqil ta'lim shakllari va mavzulari, fanni o'qitish natijalari, ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda asosiy qo'shimcha adabiyotlar batafsil bayon etilgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga Olgan.

Dastur fanning mazmuni, talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yilgan talabalar, bo'lajak pedagoglaming kelgusidagi kasb faoliyati uchun mos keladigan nazariy tushunchalami o'z ichiga olgan.Yuqoridagilami hisobga Olgan holda, ushbu o'quv dasturi mazmuni va tuzilishi jihatdan bunday o'quv dasturlariga qo'yiladigan barcha talablarga javob beradi deb hisoblayman va tavsiya etaman.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar boshlig'i, siyosiy fanlari **M.Musayev**